

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZBEK TILINING IMLO  
QOIDALARINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

Boshmanova Dildora Maxram qizi

QDPI o'qituvchisi

Karimova Moxinur Nurillo qizi

QDPI talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni tez, ravon va xatosiz o'qishga o'rgatish yo'llari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish faoliyatini tashkil etishning umumiy mazmuni hamda innovatsion yo'nalishlari xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** o'qish va yozish darslari, "begona" o'yini, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar, metodlar.

**Абстрактный**

В данной статье, в данной статье рассмотрены методы обучения младших школьников быстрому, беглому и безошибочному чтению, формы организации совместной деятельности учителя и учащихся в учебном процессе, общее содержание организации читательской и письменной деятельности в представлены начальные классы и мысли об инновационных направлениях.

**Ключевые слова.** уроки чтения и письма, игра «чужой», мозговой штурм, работа в малых группах, дебаты, проблемная ситуация, справочный текст, проект, ролевая игра, методика.

**Abstract**

In this article, in this article, the methods of teaching elementary school students to read quickly, fluently and without mistakes, the forms of organizing joint activities of the teacher and students in the educational process, the general content of organizing reading and writing activities in elementary grades and thoughts on innovative directions are presented.

**Key words** reading and writing lessons, "stranger" game, brainstorming, working in small groups, debate, problem situation, reference text, project, role-playing, methods.

Har qanday insonning tafakkurini, aqliy salohiyatini va savodxonligini oshirish hamda shakllantirish uning bolalik davridan boshlanadi. Shu sababdan bolalarga Boshlang'ich sinflarda yaxshi, mustahkam va sifatli bilim berish eng asosiy vazifa sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi matnni to'g'ri, tez, ravon, tushinib o'qish va matn mazmunini anglab yetish yo'llari bilan ilk bor 1-sinf o'qish darslarida yuzlashadi. O'quvchining kitobni qiynalmasdan o'qishni qanchalik darajada o'zlashtirishi, uning kelajagini belgilab beradi. Sababi, o'quvchiga o'qish faqat 11 yil maktabdagina emas, uning butun umri davomida zarur. O'quvchilar o'qishni yaxshi bilmasligi - bu haqiqiy inqiroz. Inson o'qishni bilmasa, u jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi, uning taffakuri, fikr yuritishi salbiy bo'ladi. O'qish darslari, savod o'rgatish davrida o'quvchilarni dastlab harflar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish shaklida amalga oshirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'quvchilar o'qishni muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy asarlardan parchalar, she'rlar, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boradi.

Badiiy asarlarni o'qishni o'rganganidan so'ng, o'quvchining dunyo qarashi, tafakkuri kengaya boshlaydi. "Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular harqanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi..."- degan edi 1- prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida.[1; 53] Bu o'rinda o'qish malakasi, ko'nikmasi nima? degan savollar tabiiy ravishda paydo bo'ladi. O'qish malakasi deganda - badiiy asar matnini to'g'ri, tez ongli va ifodali o'qish tushiniladi. O'qish malakasining sifatleri ham bor bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu uni tushinmasa, o'zi anglab o'qisa-yu boshqalar uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushinmasa, to'g'ri lekin juda sekin o'qisa, o'z maromida o'qishni bilmasa matnda ifoda etilayotgan fikr tushinilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishdir. T.G Yegorov o'zining "Ocherki psixologii obucheni detey chteniyu" nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonlarini uch bosqichga ajratib ko'rsatadi: [2] 1. Analitik bosqich. 2. Sintetik bosqich. 3. Avtomatlashgan bosqich. Ko'rsatilgan birinchi analitik bosqich bolalarning endigina harflarini o'rganish davridir. Bu bosqichda bolalarda so'zni bo'g'in-harf tamonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Ikkinchi bosqich sintetik bosqich - bolalarning so'zlarni sidirg'a o'qish, so'zlarni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'quvchilar bu bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Uchinchi bosqich avtomat o'qish bosqichi bo'lib, o'quvchi avtomat o'qishga yuqoridagi ikki bosqichdan muaffaqiyatli o'tganlaridan so'ng gina o'tadilar. Natijada esa to'g'ri o'qish ko'nikmasi yuzaga keladi. Bunda esa maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega.

O'qish va yozish kishining nutq faoliyatining turi bo'lib va yozuv malakasi nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi yozuv malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bo'lgan

og'zaki hikoya qilish, boshqalar nutqini eshitib idrok etish, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Malakaning shakllanishi uchun ma'lum bir faoliyat ko'p marta takrorlanishi talab etiladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matn bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin, bu ko'pincha o'qilgan matn yuzaki yodlashga olib keladi. Bundan tashqari, takroriy faoliyatda vaziyat bilan mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatini o'stiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilgan faoliyatni samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining aniq muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Bugun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishda turli innovatsion metod va usullardan foydalanib, kutilgan samarali natijaga erish ustida tinimsiz harakat qilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda ham o'qish va yozish darslarida bolalar bilan quyidagi o'yin va texnologiyalar olib borilganda kutilgan natijalarga olib keladi. Ulardan ba'zilar bilan tanishib o'tamiz.

1. "Berilgan bog'inlarga bittadan harf qo'shib, so'zlar hosil qiling" o'yini. Bir bo'g'inli so'z berilib, unga bir harf qo'shish orqali o'quvchilar yangi so'z hosil qilishlari kerak. Masalan: Far: farq, fard. Farz: Dar: dard, dars, darz ...kabi.[3; 26].

2. "Har bir harfdan so'ng harf qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling" o'yini o'quvchilarga avvalo bir harf beriladi, ular har bir harfga faqat bir harf qo'shib yangi so'z yasashlari kerak.[4; 36] • O-OL- OLA- OLAM: • O'-O'Q – O'QI O'qish: • O'-O'Q – O'QI-O'QIB... 54

3. "Begona" o'yini: Bunda beshta so'z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi. Masalan: "O'gay" "Erka", "Mehnatsevar", "Sehrli sandiq", "Ajdar" bitta "Kulol" begona so'z. Shu begona so'zdan ertakni davom ettirishadi.

Bola dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat ta'lim standarti talablari darajasida o'zlashtirishi kerak. O'qituvchi bu jarayonni bolaga zavq bag'ishlovchi mana shunday o'yinlar asosida qura bilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga o'quvchiga erkinlikni his etish imkonini beradi.[5;37]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan o'qish va yozish darslarining bola ta'limining keying bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonidan boshlab interfaol metod va texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil qilish, olib borish maqsadga muvofiq bo'lishi bilan birga

o'qituvchi lug'ati va nutqida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Ya'ni, ta'lim jarayonida foydalanilayotgan metod va texnologiyalarda o'quvchilar va o'qituvchining bajarayotgan vazifasiga ko'ra nomlanadi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Shoyimova M. boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslaridan turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish.
2. Doniyorova Sh. Mamayusupova S. Ona tili o'qitish metodikasi. Jizzax. 2013.
3. Makhrmovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 149-154.
4. Makhrmovna, B. D. (2023). SYMBOL OF LANGUAGE AND NATION. Conferencea, 135-140.
5. Makhrmovna, B. D. (2022). NIZOMIDDIN MAHMUDOV'S VIEWS ON MODERN LINGUISTICS. Gospodarka i Innowacje., 24, 312-315.
6. Yigitaliyeva, S. (2023). KONSEPT VA UNING LINGVISTIKADAGI TALQINI. Scienceweb academic papers collection.
7. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. Scienceweb academic papers collection.
8. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. Scienceweb academic papers collection.
9. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Scienceweb academic papers collection.
10. Yigitaliyeva, S. (2021). Linguistic analysis the concept of GOODNESS. Scienceweb academic papers collection.
11. Soliyevich, I. Z. (2023). The Problem Of Morphological Construction Of The Verb In Improving The System Of Digital Automatic Translation Of Words On The Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology, 1051-1058.
12. Soliyevich, I. Z. (2023). BADIY MATNDA FONETIK VOSITALARNING QO'LLANILISHI. Conferencea, 32-38.

13. Soliyevich, I. Z. (2022). From The History Of The Designation Of The Verb Tenses. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 313-316.
14. Movlonova, S. (2021). Oliy ta'lim muassasalarida azotli organik birikmalar mavzularini differensial yondashuv asosida o'qitish.
15. Shomurotova, S. X. (2023). KIMYO FANIDAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA BILISH DARAJASINI OSHIRISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 541-544.
16. Turgunov, K., Shomurotova, S., Mukhamedova, N., & Tashkhodjaeva, B. Diaquadichloridobis [quinazolin-4 (1H)-one-jN 3] copper (II).
17. Shomurotova, S. X., Movlonova, S. A., & Abdulloyeva, M. R. (2022, June). Oliy ta'lim muassasalarining fizik-kolloid kimyo kursida "Kolloid sistemalarning olish usullari. Maydalash va kondensatlash" mavzularini o'qitish metodikasi. In *Conference Zone* (pp. 81-82).
18. Movlonova, S. (2020). Differensirovanniy podxod pri obuchenii himii.
19. Parida, M., Bakhadirovna, B. D., Eshtemirovich, K. U., Mekhmanovich, B. B., & Israilovich, M. G. (2018). Defining of total antioxidants quantity in the leaves of different fruit trees in Uzbekistan territory. *European science review*, (1-2), 19-20.
20. Bakhtiyarovna, K. N. (2020). ECOLOGICAL SPECIFICS OF THE USE OF PHEROMONE MONITORING IN AGRICULTURE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(8).
21. Khanhodjaeva, N. B., & Grabovets, N. V. (2021). Use of New Ecological Methods to Reduce Pesticide Load as Bioprotection against Insect Pests. *Design Engineering*, 3526-3533.
22. Xanxodjayeva, N., Ermatova, S. M., Muradova, U. D., & Sadinov, J. S. (2017). ANTHROPOGENIC IMPACT OF CHEMICALS ON SOIL. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 4(48), 216-219.
23. Movlonova, S. (2021). Realizatsiya differentsirovannogo podxoda v obuchenii himii. <https://doi.org/DOI> [http://doi.org/10.37057/J\\_2](http://doi.org/10.37057/J_2)
24. Oripova, K. (2021). *BASIC CONCEPTS AND PRINCIPLES OF LINGUOCULTUROLOGY*.
25. Oripova, K. (2021). Til va madaniyatning uzviy aloqadorligi.
26. Oripova, K. (2022). LEXICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF ANTONYMS IN ARTISTIC DISCOURSE.